

## BOSHLANG'ICH TA'LIM YO'NALISHIDAGI SINFLARDA INGLIZ TILIGA QIZIQISHINI ORTTIRISH USULLARI

*Bekmurodova Pokiza*

*Samarqand davlat chet tillar instituti Ingliz tili fakultet 2  
Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tili yo'nalishi  
2-bosqich talabasi  
Ilmiy rahbar: N.N.Zubaydova.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim yo'nalishidagi sinflarga ingliz tilini o'rgatishning zamonaviy innovatsion usullari haqida so'z yuritilgan.

**Annotation:** This article talks about modern innovative methods of teaching English to primary education classes.

**Kalit so'zlar:** Innovatsion texnologiyalar , stol(table), Sezgi a'zolari(lemon), koptokcha o'yini.

**Key words:** Innovative technologies, table, sensory organs, ball game.

Hozirgi kunda ingliz tiliga bo'lgan e'tibor kuchayib bormoqda. Jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik hamkorlar uchun, bundan tashqari bizning yurtimiz turistik zona bo'lganligi uchun mamlakatimizda chet tillariga qiziqish, e'tibor kuchli.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ - 1875- soni boshlang'ich sinflarga ingliz tilini o'rgatish uchun poydevor bo'ldi. Qaror bo'yicha 1-sinf bolalariga faqat talaffuz qilish va musiqalar yordamida ingliz tili o'rgatilsa, 2-sinfda esa alifboni va yozishni o'rgatish rejalari tuzilgan edi. Bugungi kunda esa bog'cha bolalariga ham ingliz tili o'rgatilayotganligi sababli 1-sinfga borgan o'quvchi ingliz tilidan anchagina so'z boyligiga ega bo'ladi va 1- sinfdan alifboni va yozishni o'rganishadi.

Bolalarga chet tillarini o'rgatayotganda birdan murakkab qismidan ya'ni grammatikadan boshlamaslik kerak. Chunki 6-7 yoshli bolalar ham asosan yodlash orqali o'rganishadi. Agar birdan qoidalardan boshlab o'rgatilsa bolalarda charchash holati kuzatiladi va til o'rganishga bo'lgan qiziqishlari so'nadi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf bolalariga ham turli xil kommunikativ usullar orqali chet tillarini o'rgatish osonroqdir.

Ko'rish orqali eslab qolish.

Kichik yoshdagi bolalar eshitishga nisbatan ko'rish orqali ko'proq eslab qolishadi. Bolalarga ko'zga ko'rinadigan narsalarni ko'rsatib ingliz tilida nomini

soʻrash yoki yangi soʻzlarni ishtirok ettirib qisqa gaplar tuzdirish foydalidir. Masalan: sinf xonasidagi buyumlar ; kitob (book), stol (table), doska (blackboard).

Qoʻshiq aytish orqali.

Bolalarga oʻzlariga qiyin boʻlgan soʻzlarni qoʻshiq qilib kuylash orqali ham oson qilib oʻrgatish mumkin. Bu usul ham juda foydali. Misol uchun: oila aʼzolarini , taʼna aʼzolari va boshqalar.

Sezgi aʼzolari orqali.

Bu usulda turli xil mevalar , sabzavotlar, shirinliklarni yeganimizda qanaqa taʼmni his qilganimizni , uning koʻrinishini , rangini yoki boshqa bir buyumni ushlab koʻrib qanaqa shaklda ekanligini oʻrgatish orqali. Misol uchun: lemon - nordon, sariq , oval .(lemon - sour, yellow, ellipse).

Koptokcha oʻyini orqali.

Bunda har bir oʻquvchiga birma - bir koptokcha otiladi, koptokchani olgan oʻquvchi ingliz tilida biror -bir yangi soʻz aytadi , keyingi olgan oʻquvchi avvalgi aytilgan soʻzning oxirigi harfidan boshlanuvchi yangi soʻz aytadi. Shu orqali bolalar yangi soʻzlarni koʻproq oʻrganishadi va diqqatlarini ham jamlashni oʻrganishadi.

Xulosa qilib aytganda boshlangʻich sinf oʻquvchilariga til oʻrgatishni qiyin shaklda emas aksincha qiziqarli oʻyinlar, zamonaviy innovatsion usullardan foydalanib oʻrgatish kerak. Bolalarga til oʻrgatishni yanada oson qilish esa pedagogning mahoratiga bogʻliq.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori.
2. Juldasheva, N. N. (2020). Хорижий тилларни уқитишда ахборот технологиялар ва инновацион методларнинг урни. Молодой ученый, (12), 332-333.
3. Nodira Qurbonaliyeva. "Boshlangʻich sinflarda ingliz tilini oʻqitishning innovatsion usullari ".// 2021.